XALQ DEPUTATLARI BAG‘DOD TUMANI KENGASHI
QAROR

Bag‘dod tumani 20733571, Mustaqillik ko‘chasi, 15-uy. Tel:(73) 479-27-66

2021 - yil 2 - noyabr VI-35-33-11-152-K/21 Bag'dod tumani hokimligi

Bag‘dod tumanidagi ayrim mahalla fuqarolar yig‘inlarini bo‘lish va ularning chegaralarini belgilash hamda nomlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarni nomlari to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli Qarori hamda Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2021-yil 23-avgust kungi 21-sonli yig‘ilish bayoni hamda Oydinbuloq, Xitoy hamda Muruvvat mahalla fuqarolar yig‘inlari Kengashining qarorlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Bag‘dod tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining “Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi 2021-yil 26-sentabr 3-04/3-sonli yig‘ilish bayoni qanoatlantirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarni nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli Qaroriga asosan Oydinbuloq mahalla fuqarolar yig‘inidagi Chekxitoy qishlog‘i negizida “Chekxitoy” mahalla fuqarolar yig‘ini, Xitoy mahalla fuqarolar yig‘inidagi 1-Xitoy qishlog‘i negizida “Yangiobod” mahalla fuqarolar yig‘ini hamda Muruvvat mahalla fuqarolar yig‘inidagi Guliston qishlog‘i negizida “Guliston” mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil etilsin.

3. Mahalla fuqarolar yig‘ini raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi tuman komissiyasi tumanda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlarida fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlasin.

4. Tuman Qurilish bo‘limi (A.Tojiyev) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan birgalikda tuman bo‘yicha tasdiqlangan yagona zamonaviy milliy dizayn asosida bir oy muddatda geografik ob’ektlar nomlari qayd qilingan peshlavhalarni o‘rnatsin.

5. Belgilansinki, geografik ob’ektlar nomlari qayd qilingan peshlavxalarni o‘rnatish bilan bog‘lik sarf-xarajatlar qonunda belgilangan tartibda mahalliy budjet mablag‘lari va homiylar hisobidan qoplansin.

6. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (J.Sadriddinov) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarining shtatlari jadvalini tegishli tartibda shakllantirish vazifasi tonshirilsin.

7. Tuman Statistika bo‘limi (Sh.Jabborov)ga 2 hafta muddatda yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarining statistik ko‘rsatkichlariga belgilangan tartibda zaruriy o‘zgartirishlar kiritsin.

8. Bag‘dod tumani Davlat xizmatlari markazi (Z.Mirzakparov) yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish vazifasi yuklatilsin.

9. Qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashini kotibiyatiga yuklatilsin.

10. Mazkur qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Tuman hokimi **V.Nazarov**